Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MADANIY-MUASSASALARNING KOMPARTIYANING SIYOSIY-G'OYAVIY TARBIYA O'CHOQLARIGA AYLANTIRILISHI

Zohidjon Rasulovich Isomiddinov*
Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani 2-IDUM direktori
✉ isomiddinovzohidjon221@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistondagi madniy-ma'rifiy muassasalarning bolsheviklarning siyosiy-g'oyaviy tarbiya o'choqlariga aylanishi, undagi mavjud muammolar tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. shuningdek, unda eng avvalo kutubxonalar va qizil choyxonalar tashkil etilib respublikaning turli shahar va qishloqlarida qurish, kitoblar va kerakli jihozlar bilan ta'minlash muammolari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

kutubxonalar, qizil choyxonalar, madaniy muassasalar, sho'rolar, mafkura, g'oya, bolsheviklar, qiroatxona, maorif xalq komissarligi, fond, kitoblar.

DOI: 10.5281/zenodo.21743495

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi o'tgan yillar davomida respublikamiz hayotida asrlarga teng ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. So'ngi yillarda ayniqsa, bu borada samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu jarayonlar ayniqsa, sovet mustabid tuzumi davrida juda qattiq nazoratga olinib, xalqlarning milliy mentaliteti va o'zligidan ayirishga jiddiy kurash bo'lgan edi. Shuning uchun bugungi kunda aynan fojialarni keltirib chiqargan sovet mustabid tuzumining asl qiyofasini, g'ayriinsoniy va g'ayri madaniy maqsadlarini ochib bermasdan turib, boshqalarni O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishontirib, ularni amalga oshirilayotgan tub tarixiy o'zgarishlarga keng jalb etib bo'lmaydi. Sovet hukmronligi davrida og'ir sharoit hukmron bo'lib turganligiga qaramay, katta yoshdagi va yosh badiiy ijod sohiblari o'zbek milliy madaniyatini boyituvchi ko'plab adabiyot va san'at asarlarini yaratishdi. Mamlakatimizning madaniy qurilishida kundalik faoliyati o'zbek xalqining porloq kelajagi yo'lida, uning ma'naviy yuksalishi yo'lida ulkan madaniy-ma'rifiy ishlarini olib borishga qaratilgan keng tarmoqli madaniy- ma'rifiy muassasalari ham muhim o'rin egallagan. Aynan madaniy qurilish tarixi jaryonlarini yangicha tafakkur asosida idrok etish mamlakatimizda yangi chinakam demokratik huquqiy jamiyat qurayotgan xalqimizning ma'naviyatini mustahkamlash va rivojlantirish uchun boy imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism. Kommunistik mafkuraning keng miqyosda yoyish rejalarini amalga oshirishda bolsheviklar rahbariyati muayyan tarzda ommaviy madaniy-ma'rifiy va siyosiy tarbiyaviy ishlar olib borishga muhim ahamiyat bergan. Ana shu maqsadda birinchi navbatda "inqilobdan oldingi" madaniy-ma'rifiy tashkilotlarni, ayniqsa, diniy muassasalar bilan bog'liq bo'lgan "madaniy o'choqlari"ni umumiylashtirish harakatlari keng tus oldi. Shu bilan birga, o'ziga xos sho'ro madaniy-ma'rifiy muassasalari-klublar, xalq va ishchilar uylari, qiroatxonalar, qizil choyxonalar, qizil o'tovlar va hokazolarni tashkil etish yuzasidan keng miqyosda ishlar olib borilgan. Qisqa muddat ichida sovetlar O'zbekistonda 177 ta sotsialistik kutubxona, 97 ta klub, 76 ta qizil choyxona, 172 ta qiroatxona va boshqa muassasalar barpo etgan [1].

Respublika maorif xalq komissarligi 1932 yil “1933-1937 yillarda respublika kutubxona muassasalari tarmog‘ini rivojlantirish rejasi”ni ishlab chiqqan[2]. Unda shahar va qishloq joylarida kutubxonalar barpo etish nazarda tutilgan va 1938 yilga kelib ularning sonini 2,5 baravar, qishloq joylarda uch baravar ko‘paytirish belgilangan. Maorif xalq komissarligi huzurida maxsus kutubxonachilik bo‘limi tashkil etilib, uning sa’y-harakatlari tufayli 1938 yilga kelib har uch qishloq kengashida ikkitadan doimiy kutubxona tashkil etishga kirishilgan. Tumanlardagi ommaviy kutubxonalarda katta ko‘chma kitob fondlari tuzilib, ulardan har biri, o‘rta hisobda, 93 ta aholi punktiga xizmat ko‘rsatgan. Eng ko‘p kutubxona Toshkent shahrida bo‘lib, bu yerda 283 ta kutubxona, 53 ta qiroatxona, 249 ta ko‘chma kutubxona 3 mln. nusxa kitob fondiga ega edi.

Kutubxonalar respublika kutubxonalar kollektori orqali kitoblar bilan rejali ta’minlanadigan bo‘lgan va 1935 yilda qishloq va tuman kutubxonalari keng jamoatchilik yordamida 115 ming nusxa har xil adabiyotlar olgan. Korxonalar va kolxoz sovxozlarda ham ko‘chma kutubxonalar tashkil etilib, ishchilarning kitob uqishga jalb etish yo‘llari joriy etilgan.

O‘zbekistonda ommaviy kutubxonalarning rivojlanishi va ulardagi kitoblar soni quyidagi jadvalda namoyon bo‘lgan edi.

yillar	jami kutubxo-nalar	ulardagi kitoblar soni	shu jumladan shahar kutubxonasi		qishloq kutubxonasi	
			kutubxona	kitoblar	kutubxona	kitoblar
1930	607	1366767	388	1065519	219	301248
1934	651	1495044	381	1063300	270	431744
1935	2157	1499255	848	1041137	1309	449118
1936	2194	1545400	862	1078689	1332	466711
1939	2[1]308	1641004	903	1128281	1395	552003

Mazkur jadvaldan ma’lum buladiki, garchi, kutubxonalar soni, yil sayin o‘sib borgan bo‘lsa ham, ularning aksariyati moslanmagan bino va xonalarda joylashtirilgan, kitob fondi nihoyatda kambag‘al bo‘lib, kitobxonlarning ehtiyojlarini qondira olmaydigan darajada bo‘lgan. Umuman hisob-kitoblarga qaraganda, respublikada o‘sha davrda har 100 aholiga 34 ta kitob to‘g‘ri kelgan. Buning ustiga kutubxona ishlari ayniqsa, qishloqda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan, kutubxonachilar esa maxsus ma’lumotga ega emas edi. Bu hol aholiga kutubxona xizmati ko‘rsatishni jiddiy yaxshilashni talab qilar edi.

Bu paytda 1870 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Davlat xalq kutubxonasi respublikaning markaziy kutubxonasi bo‘lib, unga keyinroq Alisher Navoiy nomi berilgan. Ushbu yerda kutubxona ishining nisbatan maqbul darajada tashkil etilganligi, uning kutubxonachilik ishini yuritish masalalari yuzasidan uslubiy materiallar bilan yetarli ta’minlanganligi, mazkur kutubxona jamoasining amaliy yordami ko‘p jihatdan, tuman va qator idoraviy kutubxonalarda ishni muvaffaqiyatli yaxshi yo‘lga qo‘yishga yordam bergan. Biroq, bu markaziy kutubxona ham mustabid tuzum sharoitida o‘z fondini kitob bilan zarur darajada to‘ldira olmagan, uning faoliyatida muayyan kamchiliklar kuzatilgan. Jumladan, uning bo‘limlari ish jarayonida bir-biridan ajralib qolib, rejali ish olib bormagan, kitob fondi bibliografiyasi va kitobxon talabi yetarli o‘rganilmas, ko‘plab buyurtmalar bajarilmay qolardi. Kutubxonaning bolalar filiali yopib qo‘yilgan, unda moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar ham mavjud edi.

1937 yil 27 martda O‘zbekiston hukumati qabul qilgan “Respublikada kutubxonachilik ishi to‘g‘risida”gi qarorda kutubxona ishini yaxshilash, kutubxonachilar saviyasini oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan [3].

Shundan keyin, ikkita respublika, beshta viloyat va o‘nlab tuman kutubxonalari tashkil etilib, kutubxonashunoslik hamda bibliografiya bo‘yicha respublika uslubiy kabineti va kutubxonachilik texnikumi ochilgan. Termiz, Qarshi va Urganchda viloyat kutubxonalari uchun yangi binolar barpo etilgan. Ayni vaqtda mavjud kichik kutubxonalar bir-biriga qo‘shib, yiriklashtirilib yaxshi binolarga joylashtirilgan va natijada, 1940 yilda O‘zbekistonda 1792 ta ommaviy kutubxona ishlab turgan, ulardagi kitob va jurnallar soni 25553 ming nusxani tashkil etgan. Mazkur kutubxonalarning 1295 tasi qishloq joylarda bo‘lib, ulardagi kitob fondi 974 ming nusxadan iborat bo‘lgan. 1940 yilda respublikaning qishloq joylarida 3813 ta qizil choyxona va 300 ga yaqin qiroatxona mavjud bo‘lgan.

Bu vaqtda yil sayin maktablardagi kutubxonalar ham ko‘payib borgan va 1938-39 o‘quv yili boshlarida O‘zbekiston maktablarida 1845 ta kutubxona bor bo‘lib, ulardan 672 tasi boshlang‘ich maktablarda, 919 tasi yetti yillik va 254 tasi to‘liq o‘rta maktablar huzurida ish olib borgan. Ularning barchasida jami bir million nusxaga yaqin kitob zaxirasi mavjud edi.

1

Garchi, statistika ma'lumotlari respublikadagi kutubxonachilik ishining muvaffaqiyatlaridan dalolat bersa ham, o'sha vaqtdagi 6,4 milliondan ortiq respublika aholisining kutubxona xizmati bilan to'la va sifatli ta'minlangan deb bo'lmaydi. Chunki, aksariyat, ayniqsa, qishloq joylarida kutubxonalar talablarga javob bermagan. ularning binolari moslashmagan, moddiy bazasi yetarli emas, kitob fondlarida zarur kitoblar hamisha topilavermas, kutubxonachi ixtisosiga ega kadrlar nihoyatda oz, kutubxona xodimlari mehnatiga juda kam haq to'langan. Biroq, shunga qaramay, kutubxonalar iloji boricha ko'proq madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazishga harakat qilgan. Masalan, Buxoro viloyatining Vobkent, Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Andijon va Toshkent viloyatining Chinoz tumanlaridagi kutubxonachilar siyosiy-g'oyaviy tarbiyaga oid suhbatlar o'tkazishar, ma'ruza kechalari, o'quvchilar konferensiyalari uyushtirishar, ko'chma kutubxonalar tashkil etib, tuman markazlaridagi qizil choyxonalarga xizmat ko'rsatishar, qiroatxonalar tashkil etishda qishloq kengashlariga yordam berishar edi. Respublikaning yangidan tashkil etilgan barcha oliy o'quv yurtlarida fundamental kutubxonalar, talaba va ilmiy xodimlar uchun o'quv zallari ochilib, faoliyati yo'lga quyilgan. 1939-1940 yillarda respublikadagi oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot intitutlariga qarashli 85 ta maxsus kutubxonada 2,6 mln. nusxa kitob va jurnal bor edi [3, 70-b]. Shuningdek, respublikaning mahandis-texnik xodimlari kuch-g'ayrati bilan 40 dan ortiq ilmiy-texnikaviy kutubxonalar tashkil etilgan. 1933 yilda fanlar qo'mitasining asosiy kutubxonasi, 1935 yilda respublika sog'liqni saqlash komissarligi ilmiy-tibbiyot kutubxonasi ochilgan. Shuningdek, tarmoq ilmiy-tadqiqot institulari sanoat korxonalari huzurida ham kutubxonalar tashkil etilib faoliyatlari yo'lga quyilgan.

Respublika davlat xalq kutubxonasi fondida O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari o'tmishini o'rganish uchun boy va nihoyatda qimmatli qo'lyozmalar hamda adabiy manbalar to'planib, uning huzurida ilmiy va maxsus kutubxonalar ishini muvofiqlashtiruvchi assotsiatsiya tashkil etilgan.

Mazkur assotsitsiya barcha ilmiy kutubxonalarning ma'lumotnoma va ilmiy bibliografik ishlar sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib, kutubxonalar ishini respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning dolzarb vazifalari bilan bog'lash, shuningdek, ilmiy kutubxonalarning o'zaro yordam ko'rsatishini tashkil etish borasida katta ishlar amalga oshirgan.

Biroq, madaniy qurilish sohasidagi umumiy illatlar mazkur jabhada ham namoyon bo'lib, 1917 yil oktabr inqilobidan oldin o'tgan ko'pgina shoir va yozuvchilarning, shuningdek, stalincha qatag'on davrida ta'qib etilgan ijodkorlarning asarlari fondlardan chiqarib tashlangan. shuningdek, kutubxonalar tomonidan amalga oshiriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar marksizm-leninizmning aqidalarini mustahkamlashga qaratilgan. Stalincha ma'muriyat barcha madaniyat muassasalari va ijodiy tashkilotlar ustidan qattiq mafkuraviy nazorat o'rnatishga, partiyaning ma'naviy jarayonlarga aralashuvini mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan. Buning natijasida madaniyat siyosat vositasiga aylangan va jamiyatning ma'naviy madaniyatdagi o'rni iqtisodiy va mustamlakachilik maqsadlariga muvofiq ravishda qatiy tartibga solingan. O'sha yillardagi sovet madaniy siyosatining umumiy yo'nalishi milliy-ma'naviy hayotning tarixiy asoslariga putur yetkazishdan iborat bo'lgan. Ma'naviy sohada sinfiylikni qaror toptirish maqsadida milliy madaniyat mazmuni jadallik bilan suniylashtirib borilib, xalqni uning boy-ma'naviy merosidan ajratib qo'yish jarayoni avj olgan. Inqilobdan oldin yaratilgan barcha narsalarni sinfiy jihatdan shubhali deb hisoblash yo'li rasman qaror topilgan va hatto, xalq dostonlariga qarshi shafqatsiz kurash boshlangan. Buning samarasi o'laroq, o'zbek xalq dostoni hisoblangan "Alpomish" reaksion asar sifatida e'lon qilingan [4].

Bu davrda madaniyat uylari va klublarning faoliyati ham o'ziga xos holatda bo'lib, bu muassasalarni asosan, aholini siyosiy-g'oyaviy va tarbiya ishlariga keng jalb etishga yo'naltirilgan. Ammo, klublarning binosi va moddiy bazasi qo'yilgan talablarga javob bermasdi, klub xodimlarining kasb mahorati ham sayoz bo'lgan [4, 92-93.b]. Kompartiya butun madaniy-ma'rifiy va siyosiy-g'oyaviy tarbiya ishlarini ishlab chiqarishi masalalari bilan, savodsizlikni, chala savodlikni tugatish, har xil ixtisoslikdagi to'garaklar tashkil etish, turli mavzularda ma'ruza va suhbatlar o'tkazish, teatr spektakllari ko'rsatish, kinofilmlar namoyish etish va boshqa tadbirlar bilan bog'lab olib borishni talab qilgan. Respublika klublari, madaniyat uylari o'z vazifalarini ana shu direktiv ko'rsatmalar asosida bajargan. Masalan, 1930 yil boshlariga kelib respublika miqyosida 235 ta klub bo'lgan bo'lsa, 1937 yilga kelib ularning soni 1089 taga, 1940 yilda esa 2859 taga yetgan. Bu paytda qishloq joylarda esa 8471 klub mavjud bo'lgan. Lekin shunisi achinarliki, ushbu klublarning aksariyati amalda faoliyat yurgizmagan. Masalan, Toshkent shahrida ishlab turgan klublarda onda-sonda faqat kinofilm namoyish etilar va ba'zan yoshlarga o'yin kechalari("tansa") tashkil qilish bilangina cheklangan [5].

Ayni vaqtda, shu holatni ham ta'kidlash joizki, klublardan ko'ra choyxonalar ko'proq odamlar bilan gavjum bo'lgan. Odatda choyxonalar shaharlarda ham qishloqlarda ham eng shinam, obod va odamlarning to'planishi, dam olishi uchun qulay joylarda qurilar edi. Bu a'nanaviy sharqona maskanda asosan mahalliy millat vakillari yig'ilar va klublarga qaraganda ko'proq odamlar tuplangan. Shuning uchun respublika hukumati choyxonalarni ko'paytirish, ularning faoliyatini yanada kuchaytirishga e'tibor qaratgan. Ularni soliqlardan ozod qilish, turli jihozlar bilan ta'minlash, plakatlar, gazetalar, kitoblar qizil burchaklar tashkil etish ishlarini sho'rolar o'z zimmasiga olgan edi. 1930 yilda O'zbekistonda 514 ta choyxnona bo'lgan bo'lsa, 1932 yilda ularning soni 1700 taga, shaharlarda 280 ta, qishloqlarda 1420 taga yetgan [6].

Xulosa qilib aytganda sovetlar davrida madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning siyosiy-g'oyaviy tarbiya

o‘choqlariga aylantirilib, bolsheviklarning manfaatlariga xizmat qilgan. Bunda asosiy maqsad insonlarga madaniy xordiq chiqarishga sharoit yaratish, ularning dunyoqarashni kengaytirish, bilimlarini oshishiga ko‘maklashishdan iborat bo‘lmasdan, sovet mafkurasining keng yoyishdan iborat bo‘lgan. Shu boisdan bolsheviklar bor e’tiborni madaniy-ma’rifiy muassasalar-klublar, xalq va ishchilar uylari, qiroatxonalar, qizil choyxonalar, qizil o‘tovlar va kutubxonalarni barpo etishga qaratdi. Va buni ro‘yobga chiqarish uchun qisqa muddat ichida bir necha sotsialistik kutubxonalar, katta-kichik kulublar, juda ko‘plab qizil choyxonalar, yuzlab qiroatxona va boshqa muassasalar barpo etdi. Bularning barchasini o‘z manfaatiga xizmat qilishga chorladi. Bunda eng avvalom bor respublikaning qishloq va shaharlarida kutubxonalar barpo etib, ularni bolsheviklar g’oyalari tarannum etilgan adabiyotlar bilan to‘ldirdi. Mavjud kutubxonalar xususan, O‘zbekiston Davlat xalq kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona-I.Z.) yetakchi maskanga aylanib, barcha qolgan kutubxonalar undan andoza oldi. Bu vaqtda shaharlarga nisbatan qishloqlarda ko‘proq kutubxonalar qurilib, go‘yoki sovet hukumati qishloqlarning oddiy mehnatkash aholisi yaxshi dam oishi uchun sharoit yaratib berayotgandek edi. 30-yillarda yangidan ochilayotgan barcha oliygohlar, ilmiy tekshirish institutlari qoshida ularning kutubxonalari ham barpo etildi. Ular sohaga oid kitoblar bilan birga sho‘ro mafkurasini targ’ib qiladigan adabiyotlar bilan to‘ldirildi. Biroq, aslida bu muassasalar sovet hukumatining madaniy targ’ibot maskaniga aylangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. КПСС о культуре, просвешении и науке. – М.: 1963. – С. 130.
2. O‘zbekiston milliy arxivi, 737-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2654-ish, 7-varaq.
3. O‘zbekiston maktab va maktabgacha ta’lim vazirligi arxivi, maorif xalq komissarligi materiallari 76 a-ish 70-varaq
4. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi. –T.:«Sharq» 2001. – b.92.
5. “Правда Востка”, 1931 йил 21 январь
6. O‘zbekiston milliy arxivi, 837-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 676-ish, 25-varaq